

O‘ZBEKISTONDA SPORTNI RIVOJLANTIRISH TENDENSIYALARI

Mamirova Dilorom Tavakulovna

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti

*“Sahna harakati va jismoniy
madaniyat” kafedrasi professor v.b.*

Annotatsiya. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar jarayonida sport sohasini rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Bugungi globallashuv sharoitida yoshlarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, ularni sog‘lom turmush tarziga yo‘naltirish, jismoniy faollik va sport madaniyatini shakllantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Ushbu maqolada O‘zbekistonda sport tizimini modernizatsiya qilish jarayonlari, yoshlar sportini qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari, sport infratuzilmasi rivoji, zamonaviy yo‘nalishlarning shakllanishi hamda sohada raqobatbardosh kadrlar tayyorlash kabi dolzarb masalalar tahlil qilinadi. Shuningdek, sportning ijtimoiy-ma‘naviy ahamiyati, sog‘lom turmush tarzini qaror toptirishdagi roli, sport siyosatining tendensiyalari va o‘ziga xos xususiyatlari ilmiy-nazariy nuqtayi nazardan yoritiladi. Maqola natijalari O‘zbekistonda sportni rivojlantirishning hozirgi bosqichi va istiqbollari baholashga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Sport, tendensiya, tarbiya, sog‘lom avlod, yoshlar, 5 tashabbus, jismoniy madaniyat, renessans, tafakkur.

ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ СПОРТА В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация. В условиях масштабных реформ, проводимых в нашей стране, особое внимание уделяется развитию спортивной сферы. В современную эпоху глобализации организация содержательного досуга молодежи, формирование здорового образа жизни, повышение физической активности и укрепление спортивной культуры становятся одним из приоритетных направлений государственной политики. В данной статье анализируются процессы модернизации спортивной системы Узбекистана, механизмы поддержки молодежного спорта, развитие спортивной инфраструктуры, формирование новых современных направлений, а также подготовка конкурентоспособных кадров в отрасли. Кроме того, рассматривается социально-духовное значение спорта, его роль в продвижении здорового образа жизни, а также основные тенденции и особенности спортивной политики страны с научно-теоретической точки зрения. Полученные выводы способствуют всесторонней оценке текущего этапа развития спорта в Узбекистане и определению его перспектив.

Ключевые слова: Спорт, тенденции, воспитание, здоровое поколение, молодежь, 5 инициатив, физическая культура, ренессанс, мышление

TRENDS IN SPORTS DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN

Abstract. *Within the framework of large-scale reforms being implemented in Uzbekistan, special attention is devoted to the development of the sports sector. In today's era of globalization, organizing meaningful leisure activities for young people, promoting a healthy lifestyle, enhancing physical activity, and fostering a strong sports culture have become among the priority directions of state policy. This article analyzes the processes of modernizing Uzbekistan's sports system, mechanisms for supporting youth sports, the development of sports infrastructure, the emergence of new contemporary directions, and the training of competitive specialists in the field. In addition, the study highlights the socio-spiritual significance of sports, its role in promoting a healthy lifestyle, as well as key trends and distinctive features of the country's sports policy from a scientific and theoretical perspective. The results of the article contribute to assessing the current stage and future prospects of sports development in Uzbekistan.*

Keywords: *Sports, trends, upbringing, healthy generation, youth, 5 initiatives, physical culture, renaissance.*

KIRISH

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning: “Har bir ota-ona, har bir millatning niyati – jismoniy va ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalashdir. Bunga esa jismoniy tarbiya va sportsiz erishib bo’lmaydi. Sport sog’lom xalq, sog’lom avlodning tayanch ustunidir” degan fikrlari zamirida yoshlar tarbiyasining strategik ahamiyati mujassam. Prezidentimizning ushbu chaqirig’i sport siyosatini kuchaytirish, aholining, ayniqsa yoshlarning jismoniy faolligini oshirish, sport infratuzilmasini rivojlantirish va sog’lom avlodni tarbiyalashga qaratilgan islohotlarning mafkuraviy va ijtimoiy asosini yaratadi.

Sport-ta’lim muassasalari faoliyati rivojlanishining o’rta va uzoq muddatli istiqbollari belgilash, ularda olimpiya va paralimpiya sport turlari bo’yicha sportchilar zaxirasini tayyorlash uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, shu jumladan ularni boshqarish va moliyalashtirish tizimini takomillashtirish, shuningdek, moddiy-texnik va resurs imkoniyatlarini yanada kengaytirish masalalarini o’zida to’liq mujassamlashtirgan “Sport-ta’lim muassasalari faoliyatini 2025-yilgacha rivojlantirish dasturi to’g’risida”gi PQ-5280-sonli Qarori [1] soha rivoji uchun muhim qadamlardan biri bo’ldi desak adashmagan bo’lamiz.

Jahon xalqlari tarixi, shuningdek, O’zbekiston xalqari tarixida jismoniy tarbiya va sport tarixining ham o’ziga xos xususiyatlari hamda ijtimoiy-tarbiyaviy o’rni g’oyat kattadir. Jismoniy tarbiya harakatida mutaxassis kadrlarga bo’lgan

talablar va ehtiyojlar ijtimoiy turmush hamda mehnatda, ayniqsa, Xalqaro sport harakatida doimiy ishtirok etishi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu sababdan jismoniy tarbiya, sport, xalq milliy o'yinlari va sayohatlar bo'yicha malakali kadrlar tayyorlashga alohida e'tibor berilmoqda[2].

O'zbekiston mustaqillik yillarida sport sohasiga alohida e'tibor qaratib kelmoqda. Mamlakatda sog'lom turmush tarzini targ'ib etish, aholi, ayniqsa yoshlarni sportga keng jalb qilish borasida izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. So'nggi yillarda bu sohada chuqur tizimli o'zgarishlar yuzaga kelib, zamonaviy infratuzilma, ta'lim dasturlari va xalqaro hamkorlik sportning strategik rivojlanish omiliga aylanmoqda.

Sport infratuzilmasining modernizatsiyasi jarayonlari. O'zbekiston shahar va qishloqlarida sport maydonchalari, stadionlar, suzish havzalari, tennis kortlari va boshqa sport inshootlari qurilishi jadallashdi. Hududlarda zamonaviy sport maktablari va akademiyalarning tashkil etilishi yosh sportchilar uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda.

Yoshlarga e'tibor va ommaviy sportni rivojlantirish mexanizmlari. Yurtimizda yosh avlodning jismonan sog'lom bo'lib voyaga yetishi davlat siyosatining muhim ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Maktab, litsey, kollej va oliy ta'lim muassasalarida sport seksiyalari faoliyati kuchaytirilib, ommaviy sport tadbirlari muntazam o'tkazilmoqda. «Sog'lom bola», «Barkamol avlod», «Universiada» kabi loyihalar sportga ommaviy qiziqishni oshirishga xizmat qilmoqda.

Professional sport va xalqaro maydondagi muvaffaqiyatlar tizimi. Vatanimiz sportchilari Osiyo va jahon miqyosidagi musobaqalarda yuqori natijalarni qayd etib kelmoqda. Boks, dzyudo, kurash, gimnastika, futbol, tennis kabi yo'nalishlarda yurtimiz sportchilari yuksak mahorat namoyish etib, O'zbekiston nomini dunyoga tanitmoqda. Olimpiada o'yinlarida o'zbek sportchilarining medallar soni yil sayin ortib borayotgani sport tizimidagi islohotlarning amaliy natijasidir.

Raqamli texnologiyalar va sport menejmentining ahamiyati. Zamonaviy texnologiyalar sport sohasida ham keng joriy etilmoqda. Sportchilar tayyorgarligini monitoring qilish, raqamli statistika, onlayn o'quv dasturlari, trenerlar uchun malaka oshirish platformalari sohaning rivojiga turtki bermoqda. Sport menejmenti

yo'nalishidagi mutaxassislar tayyorlash ham zamonaviy tizim asosida amalga oshirilmoqda. Xalqaro hamkorlikning kengayishi. Mamlakatimiz xalqaro sport tashkilotlari bilan hamkorlikni kuchaytirmoqda. Yirik xalqaro musobaqalar, seminarlar va o'quv dasturlari respublikada o'tkazilayotgani tajriba almashuvini va sport diplomatiyasini rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Bugungi kunda aynan jismoniy mashqlar inson salomatligi uchun juda foydalidir. Jismoniy mashqdan ko'zlangan maqsadga erishish uchun quyidagi omillarni hisobga olish zarur:

- Shug'ulanuvchilarni individual xususiyatlari (Yoshi, jinsi, salomatligi, jismoniy rivojlanishi va jismoniy tayyorgarlik darajasi).
- Jismoniy mashqlarning xususiyatlari (qiyinligi, yangiligi, maxsuslashtirilganligi, texnik xarakteristikasi)
- Tashqi omillar (mehnat holati, o'qish, mishiy holati, dam olishi, harakat faoliyatining aniq shartlari, ob-havo sharoiti, elementar va uskunalarning sifati, mashg'ulot joylarining gigiyenasi) [3].

Gimnastik mashqlar: umumiy quvvatlovchi va maxsus mashqlarga bo'linadi. Umumiy quvvatlovchi mashqlar butun organizmni sog'lomlashtirish va mustahkamlashga qaratilgan.

MUHOKAMA

Maxsus mashqlar – tayanch harakat apparatini u yoki bu qismiga tanlab ta'sir ko'rsatadi, masalan, oyoq kaftiga yassi oyoqlik yoki uning travmatik zararlanishi yoki umurtqa pog'onasiga deformatsiyalarda; harakat cheklanganda u yoki bu bo'g'imga ta'sir etiladi. Gavda uchun mashqlar o'zining organizmga fiziologik ta'siri bo'yicha, sog'lom odam uchun umumiy quvvatlovchi hisoblanadi. Bemor uchun esa, masalan, umurtqa pog'onasi kasalligi bilan kasallangan (skolioz, osteoxondroz va b.) maxsus mashqlar guruhiga kiradi, chunki davolashni bilvosita hal qilishga yordam beradi.

Sport rivojlanishining zamonaviy tendensiyalari avvalo davlat tomonidan yaratilayotgan kuchli normativ-huquqiy baza bilan belgilanadi. Mamlakatimiz rahbariyati tomonidan qabul qilinayotgan qaror va farmonlar sport sohasining

institutsional poydevorini mustahkamlab, uning boshqaruv tizimida yangicha yondashuvlarni kiritmoqda. Sport federatsiyalari faoliyatini qo'llab-quvvatlash, sport ta'lim muassasalari va ixtisoslashgan akademiyalarni takomillashtirish orqali professional sportni rivojlantirishga keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Bunday tizimli yondashuv sportni davlat siyosatining ajralmas qismiga aylantirdi.

So'nggi yillarda sport infratuzilmasining modernizatsiyasi O'zbekistonda sport taraqqiyotining asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Respublikada zamonaviy sport majmualari, futbol maydonlari, suzish havzalari, universal zallar, yengil atletika yo'laklari barpo etilmoqda. Eng muhimi, bu jarayon faqat yirik shaharlarda emas, balki chekka hududlarda ham izchil amalga oshirilayotgani sport imkoniyatlarining hududlar bo'ylab teng taqsimlanishiga xizmat qilmoqda. Davlat-xususiy sheriklik asosida qurilayotgan sport obyektlari esa mazkur jarayonning iqtisodiy barqarorligini ta'minlayapti.

Davlat tomonidan yaratilgan sharoitlar natijasida, 2023-yil davomida respublika miqyosida 12 mingdan ortiq ommaviy sport tadbirlari tashkil etilgan bo'lib, ularda 1,5 milliondan ortiq yoshlar ishtirok etgan. Xususan, "5 tashabbus olimpiadalari", "Yoshlar sport haftaligi", "Yoshlar va sport" festivallari yoshlarning sportga bo'lgan qiziqishini oshirishda samarali vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Ushbu tadbirlar yoshlar o'rtasida sog'lom raqobat muhitini yaratmoqda, ularni sportga jiddiy yondashishga undamoqda. Yoshlarni sportga jalb etish bo'yicha qabul qilingan huquqiy-huquqiy hujjatlar ham muhimahamiyatga ega. 2022-yil 4-noyabrda qabul qilingan PQ-408-sonli Prezident qarori asosida "Mahalla –sport markazi" tamoyili joriy etilib, har bir mahallaga kamida bitta sport maydonchasi tashkil etilishi belgilangan. Bugungi kunda yurtimiz bo'ylab 4000 dan ortiq sport maydonchalari faoliyat yuritmoqda.

Ularning aksariyati yoshlar uchun bepul yoki arzon to'lov asosida xizmat ko'rsatmoqda. Shuningdek, sportga ixtisoslashgan maktab va kollejlari soni ham oshib bormoqda. Hozirda 100 dan ortiq ixtisoslashtirilgan sport maktablari faoliyat yuritib, o'n minglab yosh sportchilarni tayyorlamoqda. Bu maktablar zamonaviy sport jihozlari, malakali murabbiylar va sog'lom muhit bilan ta'minlangan.

Bular bilan bir qatorda, mahallalardagi sport instruktorlari faoliyati kuchaytirilmoqda. Har bir mahallada kamida bitta sport rahbari tayinlanib, u sport to'garaklari va musobaqalarni tashkil qilish bilan shug'ullanmoqda. Yoshlarni sportga jalb qilishda xotin-qizlar, imkoniyati cheklangan yoshlar va chekka hududlarda yashovchi o'smirlar bilan alohida ishlash tizimi ham yo'lga qo'yilgan. "Inson qadri uchun" tamoyili asosida imkoniyati cheklangan yoshlar uchun maxsus sport maydonchalari, moslashtirilgan sport uskunalari bilan jihozlangan markazlar tashkil etilmoqda. Masalan, 2023-yilda nogironligi bo'lgan yoshlar uchun 50 dan ortiq maxsus sport maydonchalari qurilgan. Yoshlarni sportga jalb qilish jarayonida ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar va bloggerlarning ham o'рни kuchaymoqda. Sport yulduzlari ishtirokida o'tkazilayotgan motivatsion uchrashuvlar, interaktiv chiqishlar va video roliklar orqali yoshlar ongida sportning hayotiy ahamiyati chuqurroq singdirilmoqda. Shu orqali nafaqat sportga qiziqish oshmoqda, balki milliy sport g'ururi, jismoniy sog'lomlik va ijtimoiy faollik rivojlanmoqda [4].

O'zbekistonda ommaviy sportning rivojlanishi ham alohida e'tiborga loyiqdir. Aholi, ayniqsa yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarziga bo'lgan qiziqish ortib borayotgani sportning ijtimoiy ahamiyatini yanada oshirmoqda. Jamoaviy yugurishlar, sport festivallari, mahallalarda muntazam o'tkazilayotgan musobaqalar va sport bayramlari jamiyatda sog'lom raqobat, jismoniy faollik va ijobiy psixologik muhitni kuchaytirmoqda. Ommaviy sportning kengayishi natijasida sportning ijtimoiy funksiyasi — sog'liqni mustahkamlash, bo'sh vaqtni mazmunli tashkil etish va ijtimoiy integratsiyani kuchaytirish kabi jarayonlar yanada samarali tus olmoqda.

Professional sportdagi muvaffaqiyatlar esa O'zbekistonning xalqaro sport maydonidagi nufuzini oshirib kelmoqda. Olimpiya va Paralimpiya o'yinlarida, Osiyo o'yinlarida hamda jahon chempionatlarida o'zbekistonlik sportchilarning erishayotgan yutuqlari yosh avlodni sportga keng jalb etayotgan muhim omillardandir. Bu jarayonda sportchilar tayyorlashning ilmiy asoslangan tizimi, yoshlar sport maktablarining modernizatsiyasi, murabbiylar malakasini oshirish, sport tibbiyoti va reabilitatsiya xizmatlarining rivojlanishi katta ahamiyat kasb

etmoqda. Shu bilan birga, sportda analitika, video tahlil va raqamli texnologiyalarni qo'llash zamonaviy yondashuv sifatida shakllanmoqda.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, yurtimizda sport sohasini rivojlantirish tendensiyalari davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida davom ettirilmoqda. Infratuzilmaning yaxshilanishi, aholini sportga keng jalb qilish, professional sportchilarning yutuqlari va raqamli texnologiyalarning kirib kelishi mamlakatda sport sanoatining yanada yuksalishiga mustahkam zamin yaratmoqda. Kelajakda O'zbekiston sportchilari yanada katta yutuqlarni qo'lga kiritishi, ommaviy sport esa milliy sog'lom turmush tarzining ajralmas qismiga aylanishi kutilmoqda.

Shuningdek, ayollar sporti rivojida yangi bosqich kuzatilmoqda. So'nggi yillarda ayollar futboli, boks, dzyudo, gimnastika kabi yo'nalishlarda yuqori natijalar qayd etilayotgani jamiyatda gender tengligini mustahkamlash, ayollarning ijtimoiy faolligini oshirishga xizmat qilmoqda. Ayollar sportining faollashishi mamlakatning sport siyosatida tenglik, inklyuzivlik va ijtimoiy adolat tamoyillarini mustahkamlamoqda.

Yuqoridagi jarayonlar O'zbekiston sportini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarayotgan omillardan hisoblanadi. Sportning ijtimoiy, madaniy, iqtisodiy va ta'limiy ahamiyati tobora kengayib borayotgani mamlakatda sog'lom, faol, raqobatbardosh avlodni tarbiyalashga xizmat qilmoqda. Kelgusi yillarda raqamli texnologiyalarni yanada chuqur joriy etish, sport tibbiyotini rivojlantirish, iqtidorli yoshlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish hamda sport industriyasini kengaytirish O'zbekiston sportining asosiy strategik yo'nalishlari sifatida e'tirof etilishi kutiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2021-yil 5-noyabr). *Sport-ta'lim muassasalari faoliyatini 2025-yilgacha rivojlantirish dasturi to'g'risida* (PQ-5280-son qaror). Lex.uz.
2. Eshnazarov, J. (2008). *Jismoniy madaniyat tarixi va boshqarish*. Fan va texnologiya. 140 b.
3. Agzamova, Sh. A. (2014). *Shifobaxsh jismoniy tarbiya*. Cho'lpon nomidagi NMIU. 160 b.
4. Sobirov Sh. Yoshlarni sportga qiziqtirish uchun davlatimiz tomonidan yaratib berilgan sharoitlar. *Yangi O'zbekiston, yangi tadqiqotlar jurnali* 2.8 (2025): 663-667.